

“O‘RTA OSIYO JAVOHIRI”-QADIM FARG‘ONA SHAHARLARI HAQIDA QIZIQ TARIX....

Shaxnoza Muxammadjonovna Xayitova

“University of Business and Science”, Ijtimoiy fanlar kafedrası o‘qituvchisi e-
mail:hayitovashahnoza51@gmail.com TEL: +998 93 402 36 72

Annotatsiya: Ushbu maqolada Farg‘ona vodiysidagi ilk dehqonchilik manzilgohlari xususan Farg‘ona vodiysida miloddan avvalgi 2,3 ming yilliklarda dehqonchilik rivoji, Farg‘ona hududidan topilgan arxeologik topilmalar, vodiya o‘rganilgan arxeologik yodgorliklar, aholining asosiy mashg‘ulotlari, kulolchilik, shishasozlik, hududidagi yirik shaharlar haqidagi ma’lumotlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Ilk dehqonchilik manzilgohlari, Axsikent, Dalvarzin, Eylaton, Sho‘rabashot, Chust madaniyati, kulolchilik buyumlari, dehqonchilik, shaharsozlik, mudofaa devorlari....

Abstract: This article covers the early agricultural settlements in the Fergana Valley, in particular the development of agriculture in the Fergana Valley in 2,3 thousand BC, archaeological finds found in the Fergana region, archaeological monuments studied in the valley, the main occupations of the population, pottery, glassmaking, and major cities in the region.

Keywords: Early agricultural settlements, Axsikent, Dalvarzin, Eylaton, Shu‘rabashot, Chust culture, pottery, agriculture, urban planning, defensive walls....

Аннотация: В статье рассматриваются ранние земледельческие поселения в Ферганской долине, в частности развитие земледелия в Ферганской долине в 2,3 тыс. до н.э., археологические находки, найденные на территории Ферганской области, археологические памятники, изученные в долине, основные занятия населения, гончарное дело, стеклоделие, а также крупные города региона.

Ключевые слова: Раннеземледельческие поселения, Ахсикент, Дальварзин, Эйлатон, Шурабашот, чустская культура, керамика, земледелие, городское планирование, оборонительные стены...

Qadimgi Farg‘ona Baqtriya, So‘g‘d, Xorazm kabi Turonzaminning yirik tarixiy-madaniy o‘choqlaridan biri hisoblanib, umumbashariyat madaniyatiga qo‘shgan munosib hissasi tufayli “Farg‘ona sivilizatsiyasi” degan nom ostida jahon tarixiga kirgan. Adabiyotlarda “O‘rta Osiyo javohiri” deb nom olgan Farg‘ona vodiysi suv manbalariga boy, iqlimi mo‘tadil, tuprog‘i unumdor bo‘lib, bu zaminda insonni yashab mehnat qilishi uchun juda qulay tabiiy shart-sharoitlar mavjud bo‘lgan.

U insoniyat tarixining ibtidosidayoq eng qadimgi odamzot ajdodlarining makonlaridan biri bo‘lgan. Jumladan, Janubiy Farg‘onadan topilgan tosh qurollari va odam suyaklari qoliqlariga qaraganda, bu o‘lka Markaziy Osiyoda insoniyatning eng qadimgi vakillari paydo bo‘lgan, shakllangan mintaqalar qatoriga kiradi degan ilmiy xulosaga kelish mumkin. Mil. avv. IV-III asrlardan boshlab vodiya dehqonchilik yanada rivojlanadi, shaharlar soni ortib boradi, hunarmandchilik va savdo-sotiq ishlari yuksaladi.

Aynan antik davrda - qadimgi Farg'ona-Davan podsholigi tarkib topadi va bu o'lkadan Buyuk Ipak yo'lining muhim tarmog'i o'z faoliyatini boshlaydi. Ipak yo'li bo'yidagi savdo-sotiq va madaniy aloqalar tufayli qadimgi Farg'ona mintaqalararo iqtisodiy munosabatlarda faol qatnasha boshlaydi. Miloddan avvalgi II -asrda Farg'onaga kelgan Xitoylik elchi Chjan Syan vodiya 70 dan ortiq katta-kichik shaharlar borligi, ularning har biri mustaqil boshqaruv tizimiga ega ekanligi, zarurat tug'ilganda mamlakat o'z mustaqilligini himoya qila oladigan harbiy kuchga ega ekanligini e'tirof etadi⁶. Farg'ona vodiysida arxeologik izlanishlar boshlanganiga 120 yildan oshdi. Shu davr ichida qo'lga kiritilgan arxeologik materiallar asosida vodiy tarixini davrlashtirish masalasida 20 ga yaqin ilmiy ishlanmalari taklif qilindi. Ular orasida B.A. Latinin, A.N. Bernshtam, Yu.A. Zadneprovskiy, N.G. Gorbunova, N.N. Negmatov va boshqalarning ishlari diqqatga sazovordir. Ushbu xronologik davrlashtirishlar vodiy tarixining eng qadimgi davrlaridan to XX asr boshlarigacha bo'lgan uzoq tarixiy manba hisoblangan "Beyshi"da 497 yilda Dovon nomi Lona tarzida beriladi⁷ va u haqida quyidagi yangi ma'lumotlar keltiriladi, "Lona qadimgi Dovon mulki bo'lib, uning hukmdori qarorgohi Guyshuanda joylashgan ...". Keyinroq (VI asr oxirlari - VII asr boshlarida esa) aynan mana shu manbaning o'zida quyida Dovon "Boxan" tarzida qayd etilgan. Sima Szyanning qayd etishicha, "Dovonliklar o'troq hayot kechiradilar, ular dehqonchilik bilan shug'ullanib, sholi va bug'doy yetishtiradilar. Ular uzumdan may tayyorlashni biladilar. Ko'plab arg'umoqlarga egalar. Ularning otlari samoviy otlar zotidan tarqalganlar. Ularning shaharlari va uylari bor. Dovonda 70 ta katta va kichik shaharlar mavjud bo'lib, aholisi esa bir necha yuz mingni tashkil etadi. Ularning qurollari o'q-yoy va nayzalardan iborat. Ular ot ustida turib, kamondan o'q otishning ustasi hisoblanadilar"deb ma'lumotlar bergan. Barcha manbalarning ma'lumot berishicha, Farg'ona ulkan, gullab-yashnayotgan va yaxshi narsalarga boy bir o'lka bo'lgan. Unda ko'plab shaharlar va qishloqlar, oqar suvlar, cho'l va tog'lar mavjud bo'lgan. Tog'larda ko'plab oltin, kumush, mis, qalay, bronza, novshadil, simob, yonar toshlar (ko'mir), tortuvchi toshlar (magnit) va boshqa foydali qazilma boyliklari qazib olingan. Poytaxt shaharlari to'g'risida ancha batafsil ma'lumotlar keltirilgan. Masalan yozma manbalarning ma'lumotlariga ko'ra, Axsikat Farg'onaning poytaxti hisoblangan. U ark (qo'handiz), madina va rabod kabi devor bilan o'rab olingan uch qismdan iborat bo'lgan. Shaharning maydoni uchdan bir farsaxga teng bo'lgan. Rabod devor bilan o'rab olingan va shahristonning besh darvozasi bo'lgan. Shahriston va rabod ichida oqar suv bo'lib, u hovuzlar bilan tutashgan. Barcha shahar darvozalari bog' va bo'stonlar bilan o'rab olingan. Ushbu ma'lumotlarni tahlil qilgan O.G. Bolshakovning qayd etishicha, Axsikatning katta hajmga egaligi to'g'risidagi fikrlar Axsikat atrofidan boshlangan va ko'p kilometrlarga cho'zilib ketgan bog'lar hisobiga vujudga kelgan. Aksincha, 1980- yillarda olingan arxeologik materiallar yozma manbalar ma'lumotlarini to'liq tasdiqlaydi va Axsikat shahrining X-XI asrlardagi maydoni haqiqatda 400 gektarga teng degan xulosani beradi. Shaharda misgarlar va zargarlar ustaxonalari ham faoliyat ko'rsatgan. Axsikat hunarmandchiligida shishasozlik va kulolchilik, sopol idishlar yashash ham muhim o'rin egallagan. Bunga shahriston va raboddan topilgan ishlab

⁶ Anorboyev A. Farg'onaning qadimgi shaharlari va ularning Markaziy Osiyo tarixida tutgan o'rni. -T, 2022. B.17

⁷ Anorboyev. A. Farg'onaning antik va o'rta asrlar davri shahar madaniyati. -T, 2017. -B.33

chiqarish chiqindilari misol bo'la oladi. Eng qadimgi shisha, aniqrog'i shisha idish parchasi VIII asrning oxirgi choragiga oid. IX asrga oid qatlamdan shisha buyumlarning uncha katta bo'lmagan kompleksi topilgan. Keyinroq, X-XII asrlarda shisha idishlar ishlab chiqarish kengayadi. Arkda olib borilgan qazishmalarda topilgan shisha idishlar muhim ahamiyatga ega bo'lib, bular kolbalar, butilkalar, mitti idishlar bo'lib, ular dorixonalar uchun mo'ljallangan. Shu bilan birga piyola, ko'zacha, grafin, qadah, siyohdon kabi idishlar ham topilgan. Shuningdek, Axsikent yodgorligi sopol buyumlari o'ziga xos rang va naqshlar bilan bezalganligi bilan ham vodiydagi boshqa yodgorliklar sopollaridan ajralib turadi. Qadim Farg'ona tarixiga oid yana muhim ma'lumotlar "Xanshu" tarixiy solnomasida o'z aksini topgan. Aynan mana shu asarda antik davrdagi Farg'ona siyosiy va iqtisodiy-ijtimoiy hayoti to'g'risida ilk ma'lumotlar keltiriladi. Ularning

3 ma'lumotlariga ko'ra, qadimgi Farg'ona davlati ikkita yordamchisiga ega bo'lgan hukmdor tomonidan boshqarilgan. Mamlakat siyosiy hayotida "Oqsoqollar kengashi" katta ahamiyat kasb etgan.⁸ Unda davlat hayotiga oid eng muhim masalalar, xususan urushlarning e'lon qilinishi, tinchlik muzokaralarini olib borish va zarurat tug'ilganda hukmdorning o'zining taqdirini hal qilish kabi holatlar ko'rib chiqilgan. Buyuk ipak yo'lining Farg'ona orqali o'tgan tarmog'i haqidagi ilk ma'lumotlar miloddan avvalgi II-I asrlardan boshlab Xitoy yozma manbalarida uchraydi. Xususan, "Shiszi" va "Xanshu" kabi tarixiy yilnomalarda Farg'ona Xitoy bilan G'arbni bog'lovchi savdo yo'lida joylashgan muxim o'lka ekanligi qayd qilingan. Miloddan avvalgi II asr va undan keyingi davrlarda Xitoy bilan O'rta Osiyoni bog'lab turgan "Shimoliy yo'l" nomi bilan mashhur bo'lgan savdo yo'li Farg'ona orqali o'tgan, ya'ni u Qashqardan Terak davon orqali Farg'ona vodiysiga borgan, undan Movoraunnahr va Buyuk cho'l orqali Qora dengiz bo'ylariga chiqqan. Xuddi shu yo'l orqali Xitoy ipagi, bronzadan tayorlangan buyumlar va boshqa tovarlar Volga daryosining quyi qismlari, Ural oldi hududlari, Shimoliy Kavkaz va Qora dengiz bo'ylarigacha yetib borgan. Xitoyga shishadan yasalgan har xil buyumlar, samoviy tulporlar, mevalar va boshqa tovarlar yuborilgan.

Farg'onadan Xitoyga zotdor otlar, quro-yarog', vino va paxta eksport qilingan. Miloddan avvalgi 128-127-yillarda Farg'onada bo'lgan Xitoy elchisi Chjan Syan Farg'onaning samoviy tulporlari haqida yozib, bunday zotdor otlarni hech qaerda ko'rmaganligini ta'kidlaydi. Yuqorida tilga olingan manbalarda quyidagi so'zlarni o'qish mumkin: "Farg'ona aholisi uzumdan tayyorlangan mayni qanday yaxshi ko'rib ichsa, ularning samoviy tulporlari ham bedani shunday yaxshi ko'rib yeydi" deb yozgan Chjan Syan. Chjan Syan Xitoyga qaytgach, imperatorga Farg'ona va u yerdagi uchqur otlari haqida to'liq ma'lumot beradi. Shundan keyin, imperator samoviy tulporlarni qo'lga kiritish maqsadida Farg'onaga birin - ketin bir necha elchilar yuboradi.

Lekin, imperator Farg'ona otlarini tinch yo'l bilan ololmaydi. So'ngra kuch ishlatish yo'li bilan otlarni qo'lga kiritishni rejalashtirib, Farg'onaga qarshi 4 yillik urushni boshlaydi.

Arxeologik materiallarning guvohlik berishicha, qadimgi Farg'ona Buyuk ipak yo'lining "Shimoliy tarmog'idagi" asosiy hudud hisoblangan.

⁸ Anorboyev A. Farg'onaning qadimgi shaharlari va ularning Markaziy Osiyo tarixida tutgan o'rni. - T, 2022. B.17

Bu haqida arxeologik topilmalar guvohlik beradi: jumladan, ipak motolar, bronzadan tayyorlangan buyumlar va ilk Xitoy tangalari kabilar.

Milodiy eraning birinchi asrlariga kelganda Farg'ona vodiysining unumdor yerlarining asosiy qismi o'zlashtiriladi.

Miloddan avvalgi XII-XI asrlarda Farg'ona vodiysi hayotida ilk urbanizatsiya jarayonlari boshlanadi. Natijada, Chust (Bibi ona) va Dalvarzin kabi yodgorliklar o'rnida ilk shahar tipidagi qarorgohlar ("protoshahar") shakllanadi.⁹

Ularning topografiyasi qal'a, shahar va hayvon qamaydigan joyga ajralib, mudofaa devorlar bilan o'rab olinadi.

Ishlab chiqarishda hunarmandlarning guruhlar paydo bo'la boshlaydi.

Xususan, sopol idishlar ishlab chiqarishda kulollar, metall buyumlar va qurollar tayyorlashda mutaxassis ustalar ajralib, shahar aholisining alohida qatlami sifatida shakllanadi. Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning ma'lum bir qismi tovar ko'rinishda ayirboshlashga yo'naltiriladi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, qo'lga kiritilgan sopol, metall va shisha materiallar IX-XII asrlarda ishlab chiqarishning yuqori darajada bo'lganligi to'g'risidagi yozma manbalar ma'lumotlarini tasdiqlabgina qolmay, balki unga aniqliklar kiritadi.

Jamiyat taraqqiyotida shaharning o'rni yuqori darajada bo'lib, qishloqlarda ham boy-badavlat oilalar shahardagi uylarga taqlid qilib turar joylar qurishgan.

Xususan, ilk o'rta asrlarda shahar aholisining asosiy qismini o'ziga to'q oilalar tashkil qilgan. Bu holat turar joylarda o'z aksini topgan.

Bu davrda shahar hayoti jamiyat taraqqiyotining asosiy mezoniga aylanadi. Farg'ona o'zining samoviy tulporlari, paxtasi, shirin-shakar uzumlari va undan tayyorlangan vinolari bilan mashhur bo'lgan.

Qishloq xo'jaligida boshoqli o'simliklar, paxta va xilma-xil meva va sabzavotlar ekilgan.

Ularning ba'zi birlari qayta ishlanib chet davlatlarga eksport qilingan.

Jumladan, Xitoyga samoviy tulporlar bilan birga paxta va uzum mahsulotlari eksport qilingan.

Shuni ta'kidlash joizki, aholini ko'payishi munosabati bilan yuzlab gektar yangi yerlar o'zlashtiriladi.

Yozning issiq kunlari ba'zi birsoy havzalarida suv tanqisligi yuz bera boshlaydi.

Bu esa o'z navbatida suvni to'g'ri taqsimlash va uni ustidan nazorat qilishni taqozo etgan.


Natijada, daryo va soylar havzasining yuqori qismida suvdan foydalanishni nazorat qilish joylari paydo bo'ladi.

Masalan, So'x havzasida Sariqo'rg'on, Marg'ilonsoyda Surxtepa, Isfayramsoyning irmog'i hisoblangan Quvasoyning yuqori qismida Yuqori Mo'yan va Qorovultepa kabi kuzatuv qal'a qo'rg'onlari quriladi.

Bunday holatni vodiyni qolgan daryo va soy havzalarida ham kuzatish mumkin.

ILOVALAR

⁹ Хужаев .А Фаргона тарихига оид маълумотлар.-Фаргона 2013.-Б.57 4



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Anorboyev A. Farg'onning qadimgi shahrlari va ularning Markaziy Osiyo tarixida tutgan o'rni -T: Fan.2002 ,139-b
2. Anorboyev A. Farg'onaning antik va o'rta asrlar davri shahar madaniyati. -T, 2017
3. Горбунова Н. Г. Могильник Кўғай // АСГЭ. – Л., 1961.
4. Заднепровский Ю. А. Городище Эйлатан... – С. 44–45.
5. Бернштам А. Н. Наскальные изображения Саймалы-Таш // СЭ. – 1952.



6. Бернштам А. Н. Историко-археологические очерки Центрального Тянь-Шаня и Памиро-Алая // МИА. – М., 1952. – №26. – С. 186–190.
7. Гамбург Б. З., Горбунова Н. Г. Новые данные о культуре эпохи бронзы Ферганской долины // СА. – 1957
8. Заднепровский Ю. А. Древнеземледельческая культура Ферганы. МИД. – М., 1962. \Литвинский Б. А., Окладников А. П., Ранов В. А. Древности Кайраккумов (древнейшая история северного Таджикистана). – Душанбе, 1962. – С. 89–287.
9. Киселев С. В. Неолит и бронзовый век Китая // СА. – 1960. – №4. – С. 252–253.
10. Заднепровский Ю. А. Чустская культура... – С. 47–48;
11. Аскарлов А. А. Южный Узбекистан во II тысячелетии до н. э. / Этнические проблемы истории Центральной Азии в древности. – М., 1981. – С. 177–178